

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ТА'ЛИМИY ФАОЛИЯТЛАРНИ “КВЕСТ” ТЕХНАЛОГИЯСИДАН ФОЙДАLANGAN XOLDA TASHKIL ETISH

Xalilova Laziza Nabijon qizi

Qo'qon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim fakulteti
5-kurs talabasi, Farg'onan viloyati O'zbekiston tumani 2-DMTT uslubchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Kvest” texnalogiyasi tushunchasi, mohiyati, mazmuni, ushbu texnalogiya yaratilish tarixi yorotib berilgan. Shuningdek kvest texnalogiyasi asosida ishlab chiqilgan faoliyat ishlanmasi, hamda uning tahlili bayon etilgan.

Key words: “Kvest” usuli, o'yin, pedagogik kompetensiya, fasilitator loyihalash, texnologiya.

KIRISH

Bugun zamon shu darajada shiddat bilan rivojlanmoqdaki, O'z navbatida zamon bilan madaniyat, san'at, ilm-fan va ta'lim ham rivoj cho'qqisi tomon ketmoqda. Endilikda ta'lim tizimida ham yangi usul va metodlardan foydalanib, ta'lim samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi. Talaba va o'quvchilar uchun an'anaviy, standard uslublar zerikarlidek tuyulmoqda. Ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi diqqat e'tiboroni tortish uchun imkon qadar noan'anaviy usullardan foydalanish keng targ'ib qilinmoqda.

Xususan, ana shunday ta'limning noan'anaviy usullaridan biri – Kvest metodi hisoblanadi. Kvest ingliz tilidan tarjima qilinganda ‘izlash’ “qidirish” “sarguzasht” degan ma'nolarni anglatib, ta'lim jarayonida butun faoliyatni o'yin asosida loyihalashtirib, o'quvchilarga muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantish maqsadida foydalaniladi.

O'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida B. Dodjem va T.Marchem (AQSh, SanDiego universiteti) ta'lim jarayonini takomillashtirish maqsadida veb-kvest texnologiyasi kontseptsiyasini ishlab chiqdilar. Universitet professori B. Dodjem tomonidan 1995 yilda "WebQuest" (veb-kvest) atamasi kiritildi. B. Dodjem o'quv jarayonida ma'lum bir qidiruv tizimidan foydalanishni taklif qildi, bunda oraliq bosqichlarni o'tish bilan vazifaning yechimini topish kerak edi, ularning har biri qandaydir harakatlarni bajarish yoki keyingi bosqichga kirish uchun kalit topishni talab qiladi.

Bugungi kunga qadar “Kvest” texnologiyalarining qo'llashni har xil turlari ishlab chiqilgan. Tuzilishi, muddati, mazmuni va yosh guruhiiga qarab bir necha turlarga bo'linib ketadi.

Ta’limda kvestlardan foydalanish loyiha faoliyatini talab qiladi. Bunda sarguzasht loyihasi oldindan tuziladi va ishtirokchilar harakati yo’nalishi taxminiy belgilanadi. Mazkur o’yinlarni turli shakllarda qo’llash mumkin: o’quv veb-kvestlar, sarguzasht yoki o’yin kvestlari, “Jonli” kvestlar Ammo maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ularning hammasi ham mos tushmaydi. Shu bilan birgalikda kvest o’yinini loyihalashtirishda ham maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ular uchun qiziqarli topshiriqlarni rejalashtirish lozim. Bu o’z navbatida pedagogdan ijodkorlik va izlanuvchanlikni talab qiladi. Ilk qadam davlat o’quv dasturida ham aynan pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta’lim va tarbiya berishda o’z bilimi , ko’nikma va resurslardan foydalanishi, ta’lim va tarbiya jarayonini rejalashtirishi , bolaning har tomonlama rivojlanishiga va uning salohiyatini ochishga hissa qo’shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratishi belgilab qo’yilgan. Bu usul jamoa bo‘lib o‘ynaladi va shuning uchun ham bolalar tomonidan iliq qarshi olinadi. Ayni usulda mashg‘ulot olib borish uchun tarbiyachidan artistlik mahorati, ijodkorlik talab etiladi. Chunki bu usulda shunchaki, nomigagina qilingan o’yin tarbiyalanuvchilarni qiziqtira olmaydi. Aynan tarbiyachi bolalarga qiyin savollar topadi, ularni mushkul vaziyatlarga solib qo‘yadi va oxir oqibat har bir bolani mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

Kvest usulining asosiy vazifalari:

- Bolalarda atrof olamga nisbatan qiziqish uyg‘otish;
- Bolalarni yangiliklardan o’yin shaklida xabardor etish;
- Har bir tarbiyalanuvchining o’zini namoyon qilishiga imkon yaratib berish;
- Do‘stona muhitni yaratish va boshqalarni his qila olish tuyg‘usini rivojlantirish;
- Tadqiqotchilik va mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

Ushbu usulning foydali tomonlari:

- Bola rejalashtirish va tahlil qilishga o‘rganadi;
- Jamo bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi;
- Maqsad sari qat’iy harakat qilish ishtiyoqi kuchayadi;
- O’yinlar jarayonida u kuzatuvchidan ishtirokchiga aylanadi va uning ilgari ochilmagan qirralari paydo bo‘ladi

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bolalar bilan sarguzasht o’yinini loyihalash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- Qiziqarli nutq tayyorlash;
- Jumboqli vazifa yaratish;
- Sarguzasht uchun o’yinlar rejasini tuzish;
- Axborot uchun resurslar ro’yxatini shakllantirish.

Bunda bolalar –

- O’zlari uchun rol tanlaydilar;
- Resurslar orqali jumboqni topish rejasini tuzadilar;

➤ Maqsadga qay tartibda erishganliklari yuzasidan xulosani shakllantiradilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oy ning oshirgi haftasida faoliyatlarni kvest usulida loyihalashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi belgilangan namunaviy o'quv rejaga asosan oy va hafta mavzulari oy so'ngida umumlashtirilib, turli topshiriq va o'yinlar orqali mustahkamlanadi.

Quyida maktabga tayyorlov guruhi bolalari uchin aprel oyi 4-haftasi uchun kvest usulida loyihalashtirilgan faoliyat ishlanmasini ko'rib chiqamiz.

Oy mavzusi: Yer sayyorasi umumiylar uyimiz.

Hafta mavzusi: Sayyorani asra.

Maqsad: Yer sayyorasi haqida bilimlarini mustahkamlash, ekologik tarbiyalarini oshirish, bolalarda ijodiy qobilyatlarini, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, hozirjavoblik va topqirlikka o'rgatish.

Markazlardagi faoliyat:

Faoliyatning borishi:

Xonaga 2 ta o'zga sayyoraliklar kirib kelishadi va bolalar bilan turli tillarda salomlashishni boshlaydilar:

- "konichiua" (yaponcha)
- "privet" (ruscha)
- "merhaba" (turkcha)
- "hello" (inglizcha)
- "bonjour" (faransuzcha)

Tarbiyachi:

- Bu yer O'zbekiston, biz o'zbek tilida so'zlashamiz. Qani bolalar mehmonlar bilan salomlashib olingchi!

- Assalomu alaykum!

- Assalomu alaykum bolalar. Biz gallaktikadagi "Mi14" sayyorasidanmiz. Biz butun gallaktika bo'ylab eng yaxshi sayyorani toppish maqsadida sayohatga chiqqan edik, shu maqsadda juda ko'p sayyoralarda bo'ldik. Yer sayyorasiga qo'nganimizda esa biz boshqaruv pulsimizni yo'qotdik va raketamiz ham shikastlandi. Sizlarning oldimgizga yordam so'rab keldik.

- Bolalar bizdan yordam so'rab kelgan mehmonlarimizga yordam beramizmi?

- Albatta

- Demak bolalar o'zga sayyoralik do'stlarimiz o'z uylariga yetib borishlari uchun eng avval ularning boshqaruv pultlarini topishimiz kerak, so'ng raketalarini ta'mirlashga ko'maklashishimiz va bizning sayyoramizdan hursand holda ketishlari uchun esdalik sovg'alar tayyorlab berishimiz kerak!

- Hurmatli mehmonlar boshqaruv pultingizni qayerda yo'qotdingiz?

- Bizni boshqaruv pulsimiz vulqonga tushib ketdi, endi uni nimadir qilib qaytarib olishimiz kerak

- Havotir olmang , bizning topqir bolajonlarimiz ilm fan va tabiat markazida vulqon otilishini o'rganib, sizlarga boshqaruv pultingizni topishga yordam berishadi. (bolalar hohishiga ko'ra' vulqon otilishi tajribasini o'tkazadigan bolalar ushbu markazda faoliyat olib boradilar. Vulqon otilishi tajribasi: gips kukunidan yasalgan vulqon maketi ichiga teng miqdorda limon kislotasi, rangli kukun, ichimlik sodasi va oxirida suv quyiladi. Tajriba tarbiyachi nazorati ostida amlga oshiriladi va faoliyat jarayonida bolalarga vulqonlar, ularning qanday paydo bo'lishi haqida ma'lumotlar beriladi)

Qurish yasash markazida esa bolalar raketa bo'laklarini yig'ib berishlari kerak bo'ladi. Bu har qanday usulda bajarilishi mumkin: pazl, qurish bloklar va shu kabilar.

San'at markazida bolalar o'zga sayyoraklar uchun esdalik sovg'a tayyorlashadi. Esdalik sovg'a uchun "yer sayyorasining rasmi" ishlanishi maqsadga muvofiq.

Til va nutq markazi: "Yer sayyorasi umumiyligi uyimiz" mavzusida syujet asosida badiiy asar ishlanmasi namoyish etiladi. (muallif L Xalilova)

xonaga yer sayyorasi kirib keladi:

- Dum dumaloq turishim, Bilsang ko'pdir yumushim.

Mehr bersang menga gar, Kam bo'lmayсан birodar!

Boshlovchi:

-Hush tabiat hush havo, tanga qandayin davo!

Barchasi yaxshi ammo, bordir biitta muammo

Gohida bilib bilmay, Yerga beramiz zarar

Qarang ikki bolakay daraxt shoxin sindirar

Bu yerdachi qizaloq , Yerga pochoq tashladи

,Yer bechora bu holdan, Biro z ko'ngil g'ashladi

Yer:

- Tushunsangchi bolajon, swndan mehr kutaman!

Iflos qilsang yuzimni, Hafa bo'lib ketaman.

Boshlovchi:

- Ali bilan Vali esa , Ushlab olibdi qushcha,

Qushga bir uy yasang siz, uni tutqin qilguncha

Voy-voy , qarang Azizbek, O't yoqishga shaylandi.

Tutundan sho'rlik yerning, Gir-gir boshi aylandi.

Tutun bo'g'ib nafasin, Yiqildi yer bechora.

Ahvoli juda og'ir, Ko'rmoq kerak ne chora?

2 bolakay:

- Bo'ldi, bo'ldi kechiring, Endi bunday qilmaymiz.

- Sizga bergen ozorlarni, gullar ekib oqlaymiz.

Qizaloq:

- Men ham hato qilibman, Kechirasizmi meni.
- Saramjonu – sarishta, Bo’laman men har ishda.
- Aziz:

 - Ha-ha men ham ishoning, Pushaymonman ishimdan.
 - Xazonlarni yoqmayman, Uyaldim qilmishimdan.

- Ali va Vali:

 - Bizchi biz kelishib oldik, Qushchaga bir uy soldik!

- Yer:

 - Barakalla bolalar, Meni mammun etdingiz
 - Xatoyingiz o’z vaqtida , Siz tushunib yetdingiz.
 - Mana yana sog’lomman, Noz-ne’matga boydurman.
 - Mehnat qiling, mehr bering, Men xizmatga shaydurman.

- Boshlovchi:

 - Butun borliq tabiat, Bizga do’stdur toabad.
 - Yer umumiy uyimiz, Uni asrash BURCHIMIZ!

O’zga sayyoraliklarning boshqaruv pulni topildi, raketalari yeg’ib berildi, sovg’a uchun rasm ishlanib mehmonlarga topshiriladi. Yakunida O’zga sayyoraliklar o’z fikrlarini bildiradilar:

- Bolajonlar biz aslida gallaktikadagi eng yaxshi sayyorani toppish maqsadida sayohatga chiqqan edik. Biz aminmizki sizning yer sayyorangiz gallaktikadagi eng yaxshi sayyoradir. Sayohatimiz davomida yer kabi tabiatni chiroqli maskanni uchratmadik. Sizlarning mehmondo’stligingiz va o’z ona yeringizga bo’lgan mehr muhabbatingiz bizlarni lol qoldirdi. Biz ham sizlar kabi Yer sayyorasini yaxshi ko’rib qoldik. Endi o’z sayyoramizga qaytib ketadigan vaqt keldi, sovg’a uchun minnatdormiz. Bu rasm bizga yerdagi yaxshi xotiralarni eslatib turadi. Biz yana albatta sizning sayyorangizga mehmon bo’lib kelamiz!

Shu bilan ta’limiy faoliyatga yakun yasaladi. Ushbu faoliyat ishlanmasi asosida Farg’ona viloyati O’zbekiston tumani 2-Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida Aprel oyida 2 tayyorlov guruhida tajriba olib borildi. “Yulduzchalar guruhida an’anaviy usulda “Yer sayyораси umumiy uyimiz mavzusida bolalar markazlarda ish olib bordila. “Binafshalar” guruhida esa yuqoridagi faoliyat ishlanmasi asosida faoliyat olib borildi. Yakunida bolalar o’zlashtirish natijasi tahlil qilinganda

Yulduzchalar o’zlashtirish ko’rsatkichi-35-40%

Binafshalar o’zlashtirish ko’rsatkichi- 65-70%

Shuningdek bolalar kuest usulida loyihalashtirilgan faoliyatni yana takrorlash istagini bildirganlar.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishning eng samarali usuli bu – O’yindir. Kichik yoshdagi bolalarga nazariya zerikarlidek tuyuladi. Har qanday ma’lumotni o’yin orqali bolaga berish eng yaxshi usullardan biri hisoblanadi. Huddi shuningdek o’yin va qiziq syujetga asoslangan Kvest usulida mashg’ulotlarni loyihalashtirish ta’lim sifati samaradorligini oshiradi. Kvest usulining yana bir e’tiborg molik jihat shuki, u o’z navbatida pedagogdan ham doimiy izlanish va kreativlikni talab qiladi. Kvest usulida faoliyatlarni loyihalashtirish pedagogninh kasbiy kompitentligini oshishiga ham sabab bo’ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. D.O“.Qarshiyeva. Darslarni “Kvest” texnologiyasi asosida loyihalashni takomillashtirish. Uslubiy qo“llanma, “QAMAR MEDIA” nashriyoti, Toshkent- 2022, 8 b
2. O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun Ilk Qadam davlat o’quv dasturi, takkomillashtirilgan ikkinchi nashr, Toshkent 2022
3. Journal of education, Ethics and value 02. 2024 , “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kvest usulini loyihalash orqali bolalarning refleksiv faoliyatini rivojlantirish” O’rinova Feruza O’ljayevna Farg’ona davlat universiteti katta o’qituvchisi, p.f.n, dotsent
4. Игумнова Е.А., Радецкая И.В. Квест-технология в образовании. Учебное пособие для студентов высш. исред. учебных заведений. – Чита: Забайкал. гос. ун-т, 2016. – С. 170-177.